

JAHON TILSHUNOSLIGIDA ORNITONIMLARNING LINGVISTIK TADQIQI

Karimboyeva Barchinoy

Urganch davlat universiteti Lingvistika (o'zbek tili) 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jahon tilshunosligida ornitonimlarning lingvistik jihatdan o'rganilishi, ularning semantik, etimologik, frazeologik, lingvokulturologik va lingvokognitiv xususiyatlari tahlil etiladi. Rus, ingliz, ispan, xitoy va boshqa tillarda qush nomlarining shakllanishi, ramziyligi, metaforik qo'llanilishi, turli kontekstlarda aktual ma'nolar kasb etishi haqidagi ilmiy izlanishlar qiyosiy asosda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ornitonimlarning xalq madaniyati, marosimlari, og'zaki ijodi hamda frazeologik birliklarda tutgan o'rni yoritilib, ular orqali insonning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari namoyon bo'lishi ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar: *Ornitonim, tilshunoslik, semantika, etimologiya, frazeologiya, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, metafora, qush nomlari, qiyosiy tadqiqot, ramziy ma'no.*

Annotation: *This article examines the linguistic study of bird names (ornithonyms) in world linguistics, focusing on their semantic, etymological, phraseological, linguocultural, and cognitive characteristics. Comparative research across Russian, English, Spanish, Chinese and other languages explores how bird names are formed, their symbolic and metaphorical uses, and their semantic transformations in various contexts. The study also highlights the role of ornithonyms in folk culture, traditions, oral literature, and phraseological units, demonstrating how they reflect human worldview and cultural values.*

Keywords: *Ornithonym, linguistics, semantics, etymology, phraseology, linguoculturology, cognitive linguistics, metaphor, bird names, comparative research, symbolic meaning.*

XIX asrda ayrim hududlar faunasini o'rganish, qushlarning sistematikasi, evolyutsiyasi va yer yuzida tarqalish qonuniyatlarini tadqiq etish sohasidagi ishlar ornitologiyaning yanada rivojlanishiga olib keldi. XX asrning birinchi yarmidan boshlab qushlarning ekologik xususiyatlari, turlararo munosabatlari, migratsiyasi o'rganila boshlandi. XX asrning birinchi yarmidan tadqiqotlarning yangi eksperimental va dalada ishlash metodlari ishlab chiqilishi tufayli ornitologiya sohasidagi tadqiqotlar biosfera va ekologiyaga oid muammolarni ilmiy nuqtayi nazardan hal etishda boshqa fanlar orasida mustahkam o'rin egalladi¹²³.

Ornitonimlar til lug'at boyligining bir qismini tashkil qiladi. Shu sababli qushlarni nafaqat zoologiyada, balki tilshunoslik va boshqa ko'plab sohalarda ham o'rganish muhim sanaladi. Dunyo tilshunosligida ornitonimlar turli tomonlama tadqiq qilingan. Bunday tadqiqotlar, asosan, etimologiya, semantika, dialektologiya, onomastika

¹²³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ornitologiya> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

yoʻnalishlarida olib borilgan boʻlib, ayniqs, rus tilshunosligida ornitonimlar va ularning oʻziga xosliklariga oid sezilarli darajada tadqiqotlar mavjud. Rus tilshunosi L.F.Moiseevaning “Rus tilida qush nomlari” (“Названия птиц в русском языке”) nomli tadqiqotida tabiatdagi qush nomlarining semantik xarakteristikasini ifodalash, rus ornitologiyasining shakllanish yoʻllari, slavyan tillaridagi semantik maʼno ifodalashdagi farqlar kabi masalalar oʻrganilgan. Rus tilida ornitonimlarning yasalishi va semantikasini tizimli tashkil qilish tamoyillari batafsil yoritilgan¹²⁴. Yana bir rus olimlaridan N.B.Neronovaning “Rus tilida qushlarning nomlanishi” (“Наименования птиц в русском языке”) nomli nomzodlik ishida esa rus tilida qushlarning nomlanishidagi struktur-semantik va struktur-grammatik asoslar sanalgan. Shuningdek, qush nomlaridagi semantik maydon, konnotativ maʼnolar, oʻzak va soʻz yasalish modellari, qushlarning jinsiga qarab nomlanishi kabi masalalar kognitiv yondashuv asosida oʻrganilgan. Jumladan, tadqiqotda rus adabiy tilidagi qush nomlari markaz va periferiyaga ega boʻlgan semantik maydonning tegishli qismi boʻlib, qushlarning mavjud nomlari allaqachon odamlarga yaxshi maʼlumligi uchun ularning semantik maydoni nisbatan yopiq boʻlsa-da, daladagi qush nomlari soni, urgʻochi-erkak nomlaridagi tabaqalanishning tobora ortib borishi va chet tilidagi ekzotik qush nomlarining kamdan kam koʻrinishi tufayli toʻldirilayotgani haqida ham fikr mavjud¹²⁵.

Qiyosiy yoʻnalishda olib borilgan tadqiqotlardan biri N.Y.Kostinaning “Qushlarning nomlari muayyan soʻz turkumi sifatida: rus va ingliz tillari materiallari asosida” (“Названия птиц как специфическая группа слов: на материале русского и английского языков”) nomli tadqiqotida rus va ingliz tillaridagi ornitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, shakllanishining ichki yoʻl va usullari, omonimligi, mazkur tillaridagi frazeologik birliklar tarkibidagi ornitonimlar diaxron aspektida oʻrganilgan. Shu bilan birga, ornitonimlarning tarjimai, rus va ingliz frazeologik birliklarining ekvivalentligi, badiiy asarlardagi ornitonimlar va frazeologik birliklarni tarjima qilishga doir muammolarga yechim keltirilgan¹²⁶.

Qush nomlarini qiyoslab oʻrganishga doir ishlardan yana biri rus olimasi M.V.Kutyevaning nomzodlik ishida rus va ispan tillaridagi ornitonimlarning milliy-madaniy xususiyatlari, koʻchma maʼno ifodalashi, shuningdek, ularning leksik va frazeologik birliklar tarkibida qoʻllanilishi va maʼnolari haqida toʻxtalib oʻtilgan. Tadqiqotda ikki tildagi ornitonimlarning variantliligi bilan birga, ularning gazeta maqolalari, adabiy asarlar va nutqiy kontekstda semantik maʼnolarining aktuallashuvi masalasi ham batafsil lingvokulturologik aspektida tahlil qilingan. Olimaning fikricha, tildagi metaforik ornitonimlar xalqning milliy-madaniy dunyoqarashi mahsuli sifatida intralingvistik va ekstralingvistik omil asosida yuzaga kelib, ular koʻchma maʼnolarining lugʻatlarda aks etish yoki etmasligini vaqt koʻrsatadi.

¹²⁴Моисеева Л.Ф. Названия птиц в русском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. 10.02.01 – Киев, 1974. –С. 30.

¹²⁵ Неронова.Н.Б. Наименования птиц в русском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. 10.02.01 – Москва, 2000. –С. 23.

¹²⁶ Костина.Н.Ю. Названия птиц как специфическая группа слов: На материале русского и английского языков : Автореф. дисс. канд. филол. наук. 10.02.01 – Москва, 2004. –С. 23.

Qush nomlarini lingvokulturalogik va lingvokognitiv yo'nalishda tadqiq qilgan A.V.Moskalenkoning ishida "qush" konsepti lingvokulturologik va lingvokognitiv jihatdan tadqiq qilinadi. Shu bilan birga ishda konsept tushunchasining paydo bo'lish nazariyalari, qush konseptiga bog'liq frazeologik birliklarni aniqlash, tarkibiy tahlil qilish, qush tushunchasining kognitiv jihatdan ko'p o'lchovli iyerarxik xarakterdaligi va iyerarxiyaning birinchi darajasida qush umumiy tushunchasi bilan ifodalangan birliklar, ikkinchi darajasida uy qushlari va yovvoyi qushlar (yirtqich va yirtqich bo'lmagan) va oxirida qushlarning o'ziga xos turlari bilan bog'liq tushunchalar o'rin olgan. A.V.Moskalenkoning keltirishicha, qush tushunchasining ontologik o'ziga xosligi u aniq bir predmet tushunchalariga ega ekanligi va ayni paytda mavjud bo'lgan birlik ekanligidir. Qush konsepti komponentlari juda serqirra bo'lib, shulardan parranda go'shti komponenti ingliz ongida bu bilan bog'liq juda ko'p metaforalar borligini ko'rsatadi. Shuningdek, yovvoyi hayvonlar nominal zichligi bo'yicha qushlar eng ko'p o'rinni egallaydi, bunda, asosan, odamlarga va atrof-muhitga bo'lgan salbiy ma'no ottenkasi ustunlik qiladi¹²⁷.

Y.P.Visaksono, S.Makaryus va E.Ermavatilarning "Qushlarning nomlari inson va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarning timsoli" ("Birds Names: Embodiment of The Relationship Between Human and Environment") nomli tadqiqot ishida Indoneziyaning Yava orolida yashovchi qushlarni nomlash masalalari yoritilgan. Tadqiqot etnolingvistik usulda bo'lib, undagi ma'lumotlar mahalliy aholi vakillari, gazeta, jurnal va kutubxona materiallari asosida to'plangan. Yava orolida flora va fauna dunyosi serqirra bo'lib, u yerdagi aholi qushlarni, asosan, qushning farqlovchi tovushi (onomotopeya – tovush yoki tovushga taqlidga asoslangan), shakli, rangi, ijtimoiy roli, falsafiy mulohazalar va boshqa narsalar bilan o'xshashligiga asoslanib nomlaganligi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan¹²⁸.

Dunyo, xususan rus tilshunosligida qarg'a ornitonimi bilan bog'liq bir qator ishlar amalga oshirilgan, shulardan S.Fedorovskayaning "Rus va shved tillaridagi qarg'a va qarg'a tarkibli frazeologizmlar" nomli tadqiqotida turli tillarda ornitonimlarning o'rganilishi, ornitonim komponentli frazeologik birliklar va ularning tildagi o'rni kabi masalalar yoritilgan. Xususan, rus va shved tillarida frazeologizmlarga oid qilingan ishlar tadqiq etilib, ikki tildagi qarg'a komponentli frazeologizmlar va ularning lug'aviy-grammatik ma'nolari aniqlangan¹²⁹.

Shuningdek, A.Lobanovanning tadqiqotida ham Rossiya hududida yashovchi komiperyamiklar tilidagi qarg'a bilan bog'liq so'z va iboralar lingvokulturologik aspektda tekshirilgan, qarg'a ornitonimi bilan bog'liq bir qancha steriotiplar aniqlangan: xunuklik, nochorlik va bema'nilik kabi¹³⁰. Shu bilan bir qatorda T.Golevaning "Петух и курица в традиционной культуре коми-пермяков" nomli

¹²⁷ Москаленко. А.В. Концепт «птица» в английской фразеологической картине мира. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2015. – 23 с.

¹²⁸ Visaksono. Y.P, Makaryus. S, Ermavati.E. Birds Names: Embodiment of The Relationship Between Human and Environment Proceedings of the First International Conference on Communication, Language, Literature, and Culture, Indonesia, 2020,

¹²⁹ Федоровская.С. Ворон и ворона во фразеологических системах русского и шведского языков. 2015.

¹³⁰ Лобанова А.С Орнитоним рака "ворона (ворон)" в коми-пермяцком языке лингвокультурологический аспект. Вестник пермского университета российская и зарубежная филология. 2016. – 22-28 с.

ishida ham komiperyamiklar tilidagi tovuq va xo'roz ornitonimlari lingvokulturologik usulda tadqiq qilingan. Mazkur xalqning urf-odat, marosimlari, e'tiqodi va xalq og'zaki ijodida uchraydigan xo'roz va tovuq ornitonimlari bilan birga parranda go'shtining boshqa xalqlar tilida ramziylik kasb etishidagi umumiy va xususiy jihatlari o'zaro taqqoslangan¹³¹.

Ma Lishining "Rus lingvokulturologiyasida ornitonomik obrazlarning timsoli" mavzusidagi nomzodlik ishida qush nomlarining madaniyat bilan aloqadorligi, rus lingvomadaniyatida ornitonimlarning ahamiyati, shu bilan birga, ornitonimlarning majoziy ma'nolari qushlarning ichki xulq-atvor (faoliyat vaqti, turmush tarzi, jamoa yoki yolg'iz, oziqlanish, parvoz qobiliyati, atrof-muhitni nazorat qilish, ko'rish, eshitish, jufti va bolalari bilan munosabatlar) xususiyatlari va tashqi ko'rinishi (rangi, tana hajmi va uning qismlari, patlari)ga qarab belgilanishi, rus xalqining ertak, qo'shiq, maqol, afsona va frazeologik birliklarida qo'llanuvchi 14 ta ornitologik ramziy ifoda tahlilga tortilgan. Tadqiqotda, asosan, rus lingvokulturologiyasidagi qushlarning ramziy ma'nolari va ular bilan bog'liq birliklar yuqoridagi belgilarga asoslangan holda tizimli o'rganilgan.

L.Lin va T.N.Sivkovalarning ishida rus va xitoy tillaridagi ornitonim komponentli metaforalar qiyosiy usulda tahlil qilingan. V.Matveyeva yozganidek, "Metafora – predmetni taqqoslash, lekin uni o'ziga xos tarzda so'z yoki ibora orqali yetkazishni o'z ichiga oladi. Metafora hodisalarning tashqi va ichki chuqur o'xshashligi va birligiga tayanadi. Zamonaviy tilshunoslikda metafora asosiy vazifasidan tashqari, aloqa, voqea-hodisalarini boshqacha tavsiflash, shuningdek, nominativ vazifa ham bajaradi". Tadqiqotchi hayvonlar, xususan, qushlar inson hayotining ajralmas qismi ekanligi, azaldan ulardan nominativ birlik sifatida foydalanib kelinganligi, shuning uchun ham ular vositasida insonga xos xususiyatlar osongina metaforik usulda ko'chirilishi haqida alohida ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga tadqiqotda rus va xitoy tillaridagi o'xshash bo'lgan ornitonim komponentli metaforalar ham o'zaro qiyoslangan.

Qushlar insoniyat hayotida muhim ahamiyatga egaligi bois ularni o'rganish ancha oldingi davrlardan boshlangan bo'lib, bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. Qushlarni maxsus o'rganuvchi zoologiyaning tarmog'i ornitologiya sanaladi. Ornitologik tadqiqotlar nafaqat zoologik, balki lingvistik jihatdan ham amalga oshirilgan. Ornitonimlar dunyo tillarining lug'at qatlamida o'ziga xos o'ringa ega. Shu sababli, ularni tadqiq qilish dunyo tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham amalga oshirilib kelinmoqda.

Dunyo tilshunosligida ornitonimlar turli tomonlama o'rganilgan. Ularning leksik-semantik, lingvokulturologik, lingvokognitiv, pragmatik tomonlari bilan birga tilning lug'at qatlamidagi roli haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, frazeologik birliklar, maqol va matallar tarkibida qo'llangan ornitonimlar ham lingvistik nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan. Ornitonimlarning hosila ma'no ifodalashi va ularning

¹³¹ Голева Т.Г Петух и курица в традиционной культуре коми-пермяков. Филология. Гуманитарные и общественные науки. 2014. – 60-72 с.

turlari, metaforik va polisemantik xususiyatlari kabilar o'rganilgan. Jahon miqyosida qilingan ornitonomik ishlarning aksariyatini qiyosiy ishlar tashkil qiladi, ya'ni ikki til doirasidagi qush nomlari va ularning farqli va o'xshash tomonlari taqqoslangan va ilmiy xulosalar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ornitologiya> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Моисеева Л.Ф. Названия птиц в русском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. 10.02.01 – Киев, 1974. –С. 30.
3. Неронова.Н.Б. Наименования птиц в русском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. 10.02.01 – Москва, 2000. –С. 23.
4. Костина.Н.Ю. Названия птиц как специфическая группа слов: На материале русского и английского языков : Автореф. дисс. канд. филол. наук. 10.02.01 – Москва, 2004. –С. 23.
5. Москаленко. А.В. Концепт «птица» в английской фразеологической картине мира. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2015. – 23 с.
6. Visaksono. Y.P, Makaryus. S, Ermavati.E. Birds Names: Embodiment of The Relationship Between Human and Environment Proceedings of the First International Conference on Communication, Language, Literature, and Culture, Indonesia, 2020
7. Федоровская.С. Ворон и ворона во фразеологических системах русского и шведского языков. 2015.
8. Лобанова А.С Орнитоним рака “ворона (ворон)” в коми-пермяцком языке лингвокультурологический аспект. Вестник пермского университета российская и зарубежная филология. 2016. – 22-28 с.
9. Голева Т.Г Петух и курица в традиционной культуре коми-пермяков. Филология. Гуманитарные и общественные науки. 2014. – 60-72 с.
10. Ма Лиши. Символизация орнитологических образов в русской лингвокультуре. – Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2022. – 19 с.